

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI**

**SURXONDARYO VILOYATINING  
STATISTIK AXBOROTNOMASI**

**2023- YIL  
YANVAR-SENTABR**

**Termiz – 2023y.**

## SO'Z BOSHI

Surxondaryo viloyatining statistik axborotnomasi Surxondaryoning ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar holatini kompleks tavsiflovchi viloyat statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2023- yil yanvar–sentabr oylari yakunlari bo'yicha Surxondaryo viloyatining asosiy statistik ko'rsatkichlari chop etilgan.

Ushbu nashrda 2023- yilning I choragidan boshlab, hisobot davri uchun statistik ko'rsatkichlar Yevropa hamjamiyatining Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan Surxondaryo viloyatining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT–2) bo'yicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mavjud iqtisodiy faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT–2 talablari qo'llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlari gaqayta shakllantirishga yo'naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog‘–kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, suv ta'minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B, C, D, E, F seksiyalari). Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini, iqtisodiyot tarmog‘i sifatida talqin qilishdagi tafovutni bartaraf etish maqsadida, yangilangan tasniflagichda qishloq xo'jaligi faqatgina dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga olmay, balki o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari mahsulotlarini ham o‘z ichiga oladi (Seksiya A “Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi”).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, Yalpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi iqtisodiy faoliyat turlarining ulush ko'rsatkichlari yalpi qo'shilgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya'ni, YAHM hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar chiqarib tashlangan).

Nashr 13 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo'lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek yalpi hududy mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy faoliyati, investitsion faoliik, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, sanoat, qurilish, bozor xizmatlarining rivojlanish dinamikasi to'g'risidagi statistika ma'lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Statistika axborotnomasida sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, transport, ichki va tashqi savdo, ulgurji va chakana savdo, narx, mehnat bozori va demografik holat to'g'risidagi tahliliy ma'lumotlar keng yoritilgan.

## MUNDARIJA

Nomi	bet
<b>ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLAR</b>	<b>6</b>
<b>I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT</b>	<b>7</b>
<b>II. SANOAT</b>	<b>12</b>
<b>III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI</b>	<b>33</b>
<b>IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH</b>	<b>45</b>
<b>V. XIZMATLAR</b>	<b>62</b>
<b>VI. TRANSPORT</b>	<b>70</b>
<b>VII. ISTE'MOL BOZORI</b>	<b>73</b>
<b>VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR</b>	<b>82</b>
<b>IX. KICHIK TADBIRKORLIK</b>	<b>93</b>
<b>X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI</b>	<b>108</b>
<b>XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI</b>	<b>120</b>
<b>XII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI</b>	<b>137</b>
<b>XIII. DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI</b>	<b>139</b>

## Qisqartma va shartli belgilar

YAHM	—	yalpi hududiy mahsulot	0,0	—	katta bo‘lmagan miqdor
%.	—	foiz	m.	—	marta
mlrd.	—	milliard	—	—	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln.	—	million	ga	—	hektar
mln. AQSH doll.	—	million AQSH dollari	t	—	tonna
kv.	—	kvadrat	yo‘lovchi/km	—	yo‘lovchi-kilometr
km.	—	kilometr	Mbit/s	-	megabit/soniya
m	—	metr	<sup>1)</sup> , <sup>2)</sup> , <sup>3)</sup> .....	—	izohning mavjudligi
f.p.	-	foiz punkt	f.d.	-	foiz daraja

**Asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar**  
**2023- yil yanvar-sentabr**


	<i>Mlrd. so‘m</i>	<i>2022- yil yanvar-sentabriga nisbatan foiz hisobida</i>
Yalpi hududiy mahsulot	29 436,5	105,2
Sanoat mahsuloti	5 931,3	105,0
Iste’mol tovarlari	1 707,1	100,1
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	24 248,4	106,5
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	9 834,2	112,3
Qurilish ishlari	5 232,6	105,3
Yuk aylanmasi <i>(mln. tn-km)</i>	870,1	102,6
Yo‘lovchi aylanmasi <i>(mln.yo‘lovchi-km)</i>	4 724,1	101,5
Chakana tovar aylanmasi	13 246,1	104,1
Xizmatlar, jami	11 009,9	109,1
<b>Tashqi savdo aylanmasi <i>(mln. AQSH doll.)</i></b>	<b>234,2</b>	<b>82,4</b>
Eksport	147,0	90,8
Import	87,2	71,2
Saldo (+;-)	59,8	x

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yil yanvar-sentabrdan ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 29 436,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 5,2 % ga o'sdi. YAHM deflyator indeksi 2022- yil yanvar-sentabrga nisbatan o'sish sur'ati 113,6 foizni tashkil etdi.

*Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) - milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident - institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga so'f soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.*

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning fizik hajm va deflyator indekslari dinamikasi quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da):



*YAHM deflyator indeksi - hudud iqtisodiyotida narxlarning o'rtacha o'zgarishini ifodalaydi va nominal YAHMning (amaldagi narxlardagi joriy davr YAHM) real YAHM ga nisbatining tavsifi.*


Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 10 392,1 ming so'mni va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,7 foizni tashkil etdi.

**2023- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha  
YAHMning ishlab chiqarish usuli bilan hisoblangan tarkibi**

	Mlrd. so‘m		Fizik hajm indeksi, % da	YAHM o‘sishidagi hissasi, %
	2022y.	2023y.		
<b>YAHM - jami</b>	<b>24 648,5</b>	<b>29 436,5</b>	<b>105,2</b>	<b>5,2</b>
<i>shu jumladan:</i>				
<b>Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati</b>	<b>23 976,0</b>	<b>28 885,8</b>	<b>105,0</b>	<b>4,8</b>
qishloq, o‘rmon vabaliqchilik xo‘jaligi	11 311,6	14 071,5	106,4	2,9
Sanoat	1 644,5	1 958,3	105,0	0,3
Qurilish	2 038,0	2 262,5	105,3	0,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	2 101,3	2 439,0	104,2	0,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 093,6	1 350,2	110,3	0,5
boshqa xizmat tarmoqlari	5 787,0	6 804,3	101,3	0,3
<b>Mahsulotlarga sof soliqlar</b>	<b>672,5</b>	<b>550,7</b>	<b>112,8</b>	<b>0,4</b>

Iqtisodiy o‘sish sur’ati milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (keyingi o‘rinlarda YAQQ) hajmi YAHM umumiylajmiy hajmining 98,1 % ini tashkil etdi va 5,0 % ga o‘sidi (YAHM mutloq o‘sishiga ta’siri 4,8 foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YAHM tarkibidagi ulushi 1,9 % ni tashkil etdi va 12,8 % darajasida o‘sish qayd etildi (YAHM mutloq o‘sishiga ta’siri 0,4 f.p.).

**2023- yil yanvar-sentabr uchun YAHMning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘sish sur’atlari, %da**





YAHM o‘sish sur’atiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi eng katta ta’sir ko‘rsatdi (48,7 f.p.) va bu soha o’tgan yilning yanvar-sentabriga nisbatan 1,5 % ga farq qildi. Jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ulushi – 8,4 % ni, qurilish – 7,8 % ga, sanoat – 6,8 % ni, tashish va saqlash, axborot va aloqa – 4,7 % ni va boshqa xizmatlar – 23,6 % ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-sentabr yakunlariga ko‘ra tashish va saqlash, axborot va aloqa bo'yicha xizmatlarida 8,4 % darajasida ijobjiy o‘sish sur’ati kuzatilib mazkur tarmoqdagi o‘sish sur’ati hisobidan YAHMning 0,4 f. p. o‘sishi ta’mindan.

Qurilish tarmog‘ining o‘sish sur’atlari 7,8 % ni tashkil etdi. YAHM ning mutloq o‘sishida qurilish tarmog‘ining ijobjiy hissasi 0,4 f.p. darajasida baholandi.

**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibi  
(foizda)**




2023- yil yanvar-sentabrda YAHM tarkibida sanoat (qurilishni qo'shgan holda) sohasining ulushi 14,6 foizni tashkil qildi, bu esa 2022- yil yanvar-sentabrga nisbatan 0,8 f.p.ga kamaygan (15,4 foiz). Jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ulushi 0,4 f.p.ga kamaygan bo'lsa, tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatining ulushi 0,1 f.p.ga oshgan.


Jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YAHM tarmoqlari tarkibidagi ulushi 2023- yil yanvar-sentabrda – 8,4 % ni (2022- yil yanvar-sentabrda – 8,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 4,7 % ni (4,6 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 23,6 % ni (24,0 %) tashkil etdi.

### **Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan foizda):**

**2022-yil yanvar-sentabr**



**2023- yil yanvar-sentabr**



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

## II. SANOAT

### Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2023- yil yanvar-sentabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 5931,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 105,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 88,5 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da




\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqsoladanidigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilish – 30,2 % ga o'sishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash korxonalarini tomonidan 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 131,7 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,2 % ini tashkil etdi.




**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini  
tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Ko‘mir, ming t.	196,5	242,3	45,8
Neft, ming t.	63,7	59,8	-3,9



Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Qattiq tuz, ming t.	16,9	17,8	0,9
Chaqiq tosh, ming t.	47,8	11,8	-36,0

## Ishlab chiqaradigan sanoat

mldr. so'm

yanvar-sentabr

FHI, % da

2989,0

4670,1

5249,7

112,9

105,1

106,1

2021- y.

2022- y.

2023- y.

2021- y.

2022- y.

2023- y.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5249,7 mldr. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 88,5 % ini tashkil etdi.


2022- yil  
yanvar-sentabr

87,6 %

2023- yil  
yanvar-sentabr


88,5%


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 0,5 % ( 0,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 25,2% ( 21,7 %) va quyi texnologiyalisi – 62,5 % ( 64,7 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 6,1 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,9 %), metalluriya sanoatining ulushi – 0,9 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 44,1 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,9 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 90,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,7 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 173,9 %)ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da





2023- yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 13,1 ming tonna paxta tolasi (2022- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 26,6 % ga ko'p), 4,5 ming tonna boshqa guruhlarga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) (66,9 % ga kam), 2,2 ming tonna lint (61,9 % ga ko'p), 38,5 ming tonna neft bitumi (19,0 % ga kam) hamda ishlab chiqarilib, kam o'sish sur'atlari kuzatildi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-sentabr	2023-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	10,4	13,1	2,7
Paxta tiviti (lint), ming t.	1,3	2,2	0,9
Neft bitumi, ming t.	47,6	38,5	-9,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	81,2	24,5	-56,7
Saryog', t.	0,9	0,2	-0,7
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	1,9	1,5	-0,4

## Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 51,8 bo'lsa, 2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi esa, 100,3 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 52,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-sentabr oyllarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 7,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 116,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 117,8 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 720,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 107,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 89,7 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 851,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 72,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-sentabr - oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 108,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 30,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 36,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 103,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 39,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 116,0 % ga ko'paygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2360,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 67,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,3 %, fizik hajm indeksi 117,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 255,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagagi ulushi 0,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 72,8 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 97,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 20,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagagi ulushi 7,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 98,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagagi ulushi 4,9 % ni, fizik hajm indeksi 56,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 290,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagagi ulushi 0,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 111,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi 221,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 77,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 427,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,2 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 100,6 % ni tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	215,7	350,0	134,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	26,3	18,2	-8,0

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 122,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,1 % ini) tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	3,5	6,0	2,5
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	22,4	24,6	-2,2

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvgaga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 44,6 mlrd. so'm, oqova suvlarini yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 6,0 mlrd. so'm shuningdek, 24,6 mlrd. so'm boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.


## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1707,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 100,1 % ni, uning jami sanoatdag'i ulushi 28,8 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari



### Nooziq-ovqat mahsulotlar



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo ulushi 0,6 % (2022- yil yanvar-sentabr oylarida 0,7 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo'rg'on tumani 19,1 %, Denov tumani 14,4 % ni, 13,2 % Sho'rchi tumaniga to'g'ri kelib ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Viloyat o'sish sur'ati (100,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qumqo'rg'on (169,2 %), Bandixon (154,5 %) va Angor (122,5 %) tumanlarida qayd etildi.



**Surxondaryo viloyat hududlari kesimida  
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**


	2023-yil yanvar-sentabr mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>5931,3</b>	<b>105,0</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>999,7</b>	<b>101,1</b>
tumanlar:		
<b>Angor</b>	<b>132,7</b>	<b>108,0</b>
<b>Bandixon</b>	<b>165,9</b>	<b>144,6</b>
<b>Boysun</b>	<b>112,5</b>	<b>112,1</b>
<b>Denov</b>	<b>643,8</b>	<b>106,1</b>
<b>Jarqoʼrgʼon</b>	<b>768,5</b>	<b>96,1</b>
<b>Qumqoʼrgʼon</b>	<b>493,7</b>	<b>102,2</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>195,9</b>	<b>117,3</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>251,4</b>	<b>103,7</b>
<b>Oltinsoy</b>	<b>124,4</b>	<b>109,8</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>302,2</b>	<b>108,3</b>
<b>Termiz</b>	<b>296,4</b>	<b>102,3</b>
<b>Uzun</b>	<b>240,7</b>	<b>100,7</b>
<b>Sherobod</b>	<b>630,0</b>	<b>106,7</b>
<b>Shoʼrchi</b>	<b>573,5</b>	<b>100,4</b>



Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2023-yilning yanvar-sentabr oylarida)


	Mldr. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1707,1</b>	<b>100,0</b>	<b>100,1</b>
Termiz sh.	173,4	10,2	61,9
tumanlar:			
Angor	67,8	4,0	122,5
Bandixon	9,4	0,6	154,5
Boysun	49,8	2,9	107,9
Denov	246,6	14,4	111,4
Jarqo'rg'on	326,1	19,1	115,4
Qumqo'rg'on	133,1	7,8	169,2
Qiziriq	54,2	3,2	121,7
Muzrabot	53,1	3,1	107,0
Oltinsoy	75,8	4,4	115,9
Sariosiyo	79,2	4,6	95,9
Termiz	59,9	3,5	87,1
Uzun	77,5	4,5	107,4
Sherobod	76,4	4,5	117,9
Sho'rchi	224,8	13,2	87,2

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushni Jarqo'rg'on tumani 19,1 % ni, Denov tumani 14,4 % ni tashkil etdi.




## Surxondaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo'rg'on tumani 13,0 % ni, Denov tuman 10,9 % ni, Sherobod tumani 10,6 % ni, shuningdek, Termiz shahri esa 16,9 % ni tashkil etdi.



## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Termiz (3562,0 ming so'm), Jarqo'rg'on (3278,1 ming so'm) hamda Sherobod (3030,6 ming so'm) tumanlarida va Termiz shahri (5052,5 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2094,0 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 602,7 ming so'm bo'lgani holda, Termiz shahrida – 876,4 ming so'mni, Sho'rchi tumanida – 999,2 ming so'mni, Termiz tumanida – 720,2 ming so'mni va Jarqo'rg'on tumanida – 1390,9 ming so'mni tashkil etdi.

### **Surxondaryo viloyati**

**2021- yil**

**613,5 ming so'm**

**2021- yil yanvar-sentabr**

**2022- yil**

**682,7 ming so'm**

**2022- yil yanvar-sentabr**

**2023- yil**

**602,7 ming so'm**

**2023- yil yanvar-sentabr**



**2021- yil**

**116,6 %**

**2021- yil yanvar-sentabr**

**2022- yil**

**113,1 %**

**2022- yil yanvar-sentabr**

**2023- yil**

**97,7 %**

**2023- yil yanvar-sentabr**

**Sho'rchi**

**81,6**

**671,5**

**Sherobod**

**127,4**

**261,2**

**Uzun**

**111,2**

**301,9**

**Termiz**

**107,6**

**554,6**

**Sariosiyo**

**116,0**

**244**

**Oltinsoy**

**126,3**

**316,3**

**Muzrabot**

**110,9**

**265,6**

**Qiziriq**

**145,7**

**295,9**

**Qumqo'rg'on**

**201,9**

**321,4**

**Jarqo'rg'on**

**68,1**

**531,6**

**Denov**

**144,2**

**405,9**

**Boysun**

**128,6**

**280,5**

**Bandixon**

**222,6**

**61,5**

**Angor**

**145,6**

**330,6**

**Termiz sh.**

**62,6**


**638,6**

**o'sish sur'ati**

**ming so'm**

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2853,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 48,1 % ni tashkil etdi.*



### Surxondaryo viloyati

2021- yil

1688,7 mlrd. soʻm

2021- yil yanvar-sentabr

2022- yil

2191,7 mlrd. soʻm

2022- yil yanvar-sentabr

2023- yil


2853,3 mlrd. soʻm

2023- yil yanvar-sentabr



## Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 3213 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 473 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 14,7 % i) Termiz shahriga, 369 tasi (11,5 %) Denov tumaniga, 242 tasi (7,5 %) Sariosiyo tumaniga, 231 tasi (7,2 %) Sho'rchi tumaniga va 223 tasi (6,9 %) Qumqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.



**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni  
mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi**

*Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariiga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 31 ta loyiha bo'yicha 65,6 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 202 ta yangi ish o'rinnari yaratildi.*


**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab  
chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari**

	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr
<i>Loyihalar soni, birlikda</i>	19	31
<i>Korxonalar soni, birlikda</i>	19	30
<i>Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm</i>	96,3	65,6
<i>Eksport qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSh dollari</i>	-	-
<i>Yaratilgan yangi ish o'rinnari, birlikda</i>	50	202


### III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI

2023- yil yanvar-sentabrida ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 24 248,4 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning shu davriga nisbatan 106,5 foizni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilikda, ovchilik va bu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 23 997,8 mlrd. so'mni (106,6 foiz), o'rmon xo'jaliklarida 171,6 mlrd. so'mni (102,0 foiz), baliqchilik xo'jaliklarida 79,0 mlrd. so'mni (113,0 foiz) tashkil qildi.


**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari (ko'rsatilgan xizmatlarning  
ishlab chiqarish hajmi hududlar kesimida**



**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari (ko'rsatilgan xizmatlarning)  
ishlab chiqarishning hajmi hududlar kesimida taqsimlanishi  
(viloyat hajmiga nisbatan foiz hisobida)**




**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning hajmi xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi  
(% da)**




Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 70,9 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 21,6 foizi fermer xo'jaliklariga va 7,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelmoqda.

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning hajmi xo‘jalik  
toifalari bo‘yicha hududlar kesimida taqsimlanishi**  
(% da)



**Dehqonchilik.** 2023- yil yanvar-sentabrida dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 12 897,1 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning shu davriga nisbatan 110,0 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiyligi hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 54,1 foizni tashkil etdi.

**Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi xo‘jalik  
toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**  
(foiz hisobida)



Xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlillar qishloq xo‘jaligi mahsulotlar umumiyligi hajmining 54,1 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 34,9 foizi fermer xo‘jaliklariga va 11,0 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

**2023- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan  
asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlari**


	Barcha turdag'i xo'jaliklar	shu jumladan							
		fermer xo'jaliklari		dehqon va tomorqa xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar			
		ming tonna	<i>o'sish sur'ati, %da</i>	ming tonna	<i>o'sish sur'ati, %da</i>	ming tonna	<i>o'sish sur'ati, %da</i>	ming tonna	<i>o'sish sur'ati, %da</i>
Don ekinlari	694,2	104,5	476,6	102,2	86,8	104,6	130,8	130,5	
Kartoshka	301,6	101,2	15,5	105,8	283,1	100,6	3,0	148,4	
Sabzavotlar	884,6	101,0	88,4	102,2	759,9	100,3	36,3	114,7	
Poliz	219,2	101,2	30,5	108,7	184,8	100,0	3,9	101,7	
Meva va rezavorlar	137,4	100,3	45,7	108,8	88,6	96,4	3,1	99,0	
Uzum	67,2	76,1	25,0	58,9	40,9	92,9	1,3	71,9	



**Hosil yig'imi.** 2023- yil yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 694 202 tonna don va dukkakli don ekinlari (104,5 foiz), 301 560 tonna kartoshka (101,2 foiz), 884 563 tonna sabzavot (101,0 foiz), 219 222 tonna poliz (101,2 foiz), 137 448 tonna meva (100,3 foiz) va 67 159 tonna uzum (76,1 foiz) etishtirildi.

Barcha hududlarda dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishi asosan dehqon va tomorqa hamda fermer xo'jaliklari hisobiga bo'lib, don ekinlari ishlab chiqarish umumiylajmida ularning ulushi 81,2 foizni, kartoshka 99,1 foizni, sabzavot 95,9 foizni, poliz 98,2 foizni, mevalar 97,6 foizni va uzum ishlab chiqarishda 98,2 foizni tashkil etdi.


**Asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda  
xo'jalik toifalarining ulushi, foizda**



Asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi don ekinlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelgan (68,6 %) bolsa, kartoshka ishlab chiqarishda dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'i (93,9 %) keldi.


Shuningdek, sabzavot ishlab chiqarish 85,9 %, poliz mahsulotlari ishlab chiqarish 84,3 %, mevalar 64,4 % va uzum 61,0 % ishlab chiqarish ham dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'i keldi.

**2023- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish (ming tonna)**



■ Don ekinlari ■ Kartoshka ■ Sabzavotlar





■ Poliz ■ Meva va rezavorlar ■ Uzum



Hududlar kesimida asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda don ekinlari bo'yicha Sherobod tumanida (105,5 ming tonna) va poliz mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha (9,2 ming tonna) Angor tumanida qayd etildi.

Shuningdek, eng yuqori ko'rsatkichlar sabzavotlar ishlab chiqarishda (153,7 ming tonna), kartoshka mahsulotlari ishlab chiqarishda (64,4 ming tonna), meva va rezavorlar ishlab chiqarish bo'yicha Denov tumanida (20,8 ming tonna), uzum ishlab chiqarish bo'yicha Oltinsoy tumanida (14,3 ming tonna) qayd etildi.

**Chorvachilik.** 2023- yil yanvar-sentabrida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 10 938,8 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning shu davriga nisbatan 102,3 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 45,9 foizni tashkil etdi.


2023- yil yanvar-sentabrida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 148,8 ming tonna go‘sht (2022 yil yanvar-sentabriga nisbatan 1,8 foizga ko‘p), 618,8 ming tonna sut (3,4 foizga ko‘p), 425,3 mln. dona tuxum (8,8 foizga ko‘p) ishlab chiqarildi.



### **2023- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlari**


	Barcha turdag'i xo‘jaliklar		shu jumladan					
			fermer xo‘jaliklari		dehqon va tomorqa xo‘jaliklari		qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming tonna	o‘sish sur’ati, %da	ming tonna	o‘sish sur’ati, %da	ming tonna	o‘sish sur’ati, %da	ming tonna	o‘sish sur’ati, %da
Go‘sht, tirik vaznda	148,8	101,8	9,9	105,2	136,1	101,0	2,8	132,0
Sog‘ib oltingan sut	618,8	103,4	21,3	104,7	592,1	103,2	5,4	120,8
Tuxum, mln.dona	425,3	108,8	26,1	118,1	182,9	100,5	216,3	115,7
Jun, tonna	1 942	101,7	397	103,7	1 463	100,5	82	113,9
Qorako‘l teri, dona	9 880	104,7	1 610	97,7	5 085	101,8	3 185	114,0

**2023- yil yanvar-sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlari  
ishlab chiqarish tarkibi**  
*(ishlab chiqarish umumiy hajmiga nisbatan foiz hisobida)*



Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go'sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o'sishi asosan dehqon va tomorqa hamda fermer xo'jaliklari hisobiga bo'lib, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 98,2 foizni, sut ishlab chiqarishda 99,1 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 67,8 foizni tashkil etdi.

**2022- yil yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda  
chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi**



2023- yilning 1- oktabr holatiga 2022- yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 103,5 foizga (jami 1 007,6 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 101,6 foizga (361,9 ming bosh), qo‘y va echkilar 102,3 foizga (2 551,1 ming bosh) va parrandalar 102,8 foizni (5 133,1 ming boshni) tashkil etdi.



**2023- yilning 1- oktabr holatiga xo‘jalik toifalari bo‘yicha  
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Barcha turdag'i xo‘jaliklarda		shu jumladan					
			fermer xo‘jaliklarida		dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida		qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda	
	ming bosh	<i>o’sish sur’ati, %da</i>	ming bosh	<i>o’sish sur’ati, %da</i>	ming bosh	<i>o’sish sur’ati, %da</i>	ming bosh	<i>o’sish sur’ati, %da</i>
Qoramollar	1 007,6	103,5	66,1	107,3	924,2	103,3	17,3	101,8
shu jumladan, sigirlar	361,9	101,6	24,7	110,8	331,8	100,9	5,4	108,0
Qo‘y va echkilar	2 551,1	102,3	510,2	107,4	1 967,9	101,1	73,0	102,8
Otlar, bosh	15 737	103,9	4 581	111,0	10 644	100,9	512	108,2
Parrandalar	5 133,1	107,1	566,0	128,1	2 792,6	100,2	1 774,5	100,7



Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 91,7 foizni, fermer xo‘jaliklarida esa 6,6 foizni, shu jumladan, sigirlar mos ravishda 91,7 va 6,8 foizni, qo‘y va echkilar 77,1 va 20,0 foizni, otlar 67,6 va 29,1 foizni, parrandalar 54,4 va 11,0 foizni tashkil etdi.


**2023- yil 1- oktabr holatiga barcha toifadagi xo‘jaliklarda chorva  
mollari va parrandalar bosh soni (ming bosh)**



## VI. INVESTITSIYALAR VA QURILISH

2023- yil yanvar-sentabr oylarida Surxondaryo viloyatida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan **9 834,2** mlrd. so‘m, yoki 2022- yilning shu davriga nisbatan 112,3 % asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi.


**Asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘sish sur’atlari  
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati, % da)**  
(2023- yil yanvar-sentabr)



2023- yil yanvar-sentabrida jami asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, ya’ni 72,8 %i viloyatning oltita hududida, jumladan, Termiz shahrida - 16,5 %, Boysun tumanida – 18,2 %, Sariosiyo tumanida - 12,3 %, Sherobod tumanida - 9,7 %, Denov tumanida - 8,7 % va Jarqo‘rg‘on tumanida - 7,4 % o‘zlashtirildi.

Qator hududlarda asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi, jumladan, Sherobod tumanida o‘tgan yilga nisbatan 271,8 % (asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 959,1 mlrd. so‘m), Jarqo‘rg‘on tumanida - 186,3 % (731,4 mlrd. so‘m), Bandixon tumanida - 157,1 % (275,3 mlrd. so‘m), Boysun tumanida - 135,2 % (1 786,7 mlrd. so‘m), Oltinsoy tumanida - 134,5 % (269,4 mlrd. so‘m) va Termiz shahrida - 73,1 % (1 621,5 mlrd. so‘m).

### Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar (2023- yil yanvar-sentabr)




2023- yil yanvar-sentabr aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar Termiz shahrida – 8 193,5 ming so‘m (yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 70,9 %), mos ravishda Boysun tumanida – 14 537,5 ming so‘m (132,5 %), Termiz tumanida – 6 589,0 ming so‘m (90,5 %), Angor tumanida – 2 423,3 ming so‘m (98,9 %), Sariosiyo tumanida – 5 394,7 ming so‘m (127,5 %), Jarqo‘rg‘on tumanida – 3 120,3 ming so‘m (181,9 %) va Bandixon tumanida – 3 373,3 ming so‘m (153,1 %) qayd etildi.

**2023- yil yanvar-sentabrdagi asosiy kapitalga investitsiyalarning  
moliyalashtirish manbalari bo'yicha taqsimlanishi**


	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan % da</i>
<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar</b>	<b>9 834,2</b>	<b>112,3</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
<b>Markazlashgan investitsiyalar</b>	<b>2 248,1</b>	<b>104,8</b>	<b>22,9</b>
byudjet mablag'lari	1 891,1	154,6	19,2
Davlat maqsadli jamg'armalari	66,3	16,0	0,7
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	290,7	57,3	3,0
<b>Markazlashmagan investitsiyalar</b>	<b>7 586,1</b>	<b>114,8</b>	<b>77,1</b>
korxona mablag'lari	993,8	65,3	10,1
aholi mablag'lari	1 451,2	100,2	14,7
to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investiesiya va kreditlar	4 500,3	149,2	45,8
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	640,8	101,2	6,5

**Markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi, % da**

**2022- yil yanvar-sentabr**




**2023- yil yanvar-sentabr**



Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,8 % yoki 2 248,1 mlrd. so‘m (jami investitsiyalar hajmining 22,9 %i yoki o‘tgan yildagi ko‘rsatkichiga nisbatan 1,8 % punktga kampaygan) asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi, mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 7 586,1 mlrd. so‘m yoki 114,8 %ni tashkil etdi.


### **Asosiy kapitalga investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari**



2022- yilning mos davri bilan solishtirganda Respublika byudjeti ulushi 5,1 % f.p. ga ko‘paydi.

O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 290,7 mlrd. so‘mni tashkil qildi.

## **Asosiy kapitalga investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalari**



Markazlashmagan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari asosan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar (jami investitsiyalar hajmiga nisbatan 45,8 %), tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari (6,5 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.

***Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan yirik davlat ahamiyatidagi ijtimoiy investitsiya loyihasi:***

*Dastur bo‘yicha “O‘zshaharqurilish invest” IK tomonidan shahar joylarda arzon ko‘p qavatli turar joylar qurilishi.*

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari  
bo‘yicha tarkibi**

	<i>Jami investitsiyalar, mlrd. so‘m</i>	<i>shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo‘yicha: (jamiga nisbatan, %)</i>				
		<i>Respublika byudjeti</i>	<i>Davlat maqsadli jamg‘armalari</i>	<i>Korxona va aholi mablag‘i</i>	<i>Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari</i>	<i>Xorijiy investitsiya va kreditlar</i>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>9 834,2</b>	<b>19,2</b>	<b>0,7</b>	<b>24,9</b>	<b>6,5</b>	<b>48,7</b>
Termiz sh.	1 621,5	30,1	0,4	31,0	9,8	28,7
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	269,4	17,8	-	28,7	3,7	49,8
Angor	343,1	5,7	1,4	29,2	9,7	54,0
Bandixon	275,3	11,9	0,4	15,5	4,2	68,0
Boysun	1 786,7	2,4	0,2	8,9	0,8	87,7
Muzrabot	320,4	4,9	0,4	41,7	8,0	45,0
Denov	858,9	14,3	2,3	38,2	4,0	41,2
Jarqo‘rg‘on	731,4	9,0	1,1	23,9	9,0	57,0
Qumqo‘rg‘on	259,6	25,5	-	47,0	9,3	18,2
Qiziriq	213,1	7,5	-	31,4	20,0	41,1
Sariosiyo	1 211,1	65,9	0,6	15,5	7,3	10,7
Termiz	548,2	8,3	2,5	38,3	12,2	38,7
Uzun	202,6	20,6	0,1	29,1	11,6	38,6
Sherobod	959,1	3,5	-	21,4	1,5	73,6
Sho‘rchi	233,8	23,7	-	32,5	11,7	32,1

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning mulkchilik shakllari bo‘yicha  
texnologik tarkibi**  
(2023- yil yanvar-sentabr)

	<i>Jami</i>	<i>Nodavlat</i>	<i>Davlat</i>
<b>Jami, mldr. so‘m</b>	<b>9 834,2</b>	<b>8 775,7</b>	<b>1 058,5</b>
<i>shu jumladan jamiga nisbatan % da:</i>			
Qurilish – montaj ishlari	64,0	62,0	80,3
Mashina, uskuna, inventar	23,9	25,1	13,9
Boshqa xarajatlar	12,1	12,9	5,8

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida: Viloyat bo‘yicha qurilish montaj ishlaring ulushi – 64,0 % ni, mashina, uskuna, inventar sotib olishga xarajatlar – 23,9 % ni hamda boshqa xarajatlar ulushi – 12,1 % ni tashkil etdi.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar  
(2023- yil yanvar-sentabr)**

	<i>Mldr. so‘m</i>	<i>Jamiga nisbatan % da</i>	
		<i>2022- yil yanvar- sentabr</i>	<i>2023- yil yanvar- sentabr</i>
<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar-jami</b>	<b>9 834,2</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>Shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha:</i>			
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	1 125,1	12,4	11,4
Tog‘ - kon sanoati	1 408,3	10,4	14,3
Ishlab chiqarish sanoati	1 443,3	13,5	14,7
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni kondisiyalash	807,6	4,2	8,2
suv bilan ta’minlash; kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizasiya qilish	1 012,2	5,6	10,3
qurilish	219,4	2,2	2,2
ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta’mirlash	440,2	7,6	4,5


	<i>Mlrd. so‘m</i>	<i>Jamiga nisbatan % da</i>	
		<i>2022- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2023- yil yanvar-sentabr</i>
Tashish va saqlash	792,1	10,5	8,1
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha hizmatlar	52,0	0,4	0,5
Axborot va aloqa	69,5	0,9	0,7
Moliya va sug‘urta faoliyati	13,8	0,2	0,1
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	137,2	2,1	1,4
Ta’lim	412,1	6,0	4,2
Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	268,2	4,0	2,7
Sa’nat, ko‘ngil ochish va dam olish sohasi	23,8	0,5	0,3
Jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joy qurilishiga investitsiyalar	1 427,7	16,7	14,5
Boshqa faoliyat turlari	119,6	2,6	1,9

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘zlashtirilishi: tog‘-kon sanoatida 1 408,3 mlrd. so‘m (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 14,3 %), shu jumladan xom neft va tabiiy gaz qazib chiqarish faoliyat turida 1 264,4 mlrd. so‘m (12,9 %), ishlab chiqarish sanoatida 1 443,3 mlrd. so‘m (14,7 %), shu jumladan oziq – ovqat, ichimlik va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish 172,1 mlrd. so‘m (1,7 %), tekstil mahsulotlarni ishlab chiqarish 447,9 mlrd. so‘m (4,6 %), boshqa nometal nomineral mahsulotlar ishlab chiqarish faoliyat turida 453,9 mlrd. so‘m (4,6 %), elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni kondisiyalash faoliyat turida 807,6 mlrd. so‘m (8,2 %), suv bilan ta’minlash; kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizasiya qilish faoliyat turida 1 012,2 mlrd. so‘m (10,3 %), qurilish faoliyati turida 219,4 mlrd. so‘m (2,2 %), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta’mirlash faoliyat turida 440,2 mlrd. so‘m (4,5 %), tashish va saqlash faoliyat turida 792,1 mlrd. so‘m (8,1 %), axborot va aloqa faoliyat turida 69,5 mlrd. so‘m (0,7 %), professional, ilmiy va texnik faoliyat turida 137,2 mlrd. so‘m (1,4 %), ta’lim sohasida 412,1 mlrd. so‘m (4,2 %), jami faoliyat turlaridan tashqari turar joy qurilishida 1 427,7 mlrd. so‘m (14,5 %) investitsiyalar o‘zlashtirildi.

## 2023- yil yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi



### Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi



■ Yangi qurilish ■ Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizasiya, ■ Boshqalar

*Surxondaryo viloyati asosiy kapitalga investitsiyalar bo‘yicha korxona va tashkilotlarni modernizasiya qilish, texnik va texnologik qayta qurollantirish, hamda kengaytirishga investitsiyalar ulushi – 20,5 % ni tashkil etdi.*

## Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

2023- yil yanvar-sentabrda 4 791,1 mlrd. so‘m (dollar ekvivalentida 0,408 mlrd. AQSH doll.) yoki 2022- yil yanvar-sentabrga nisbatan 135,9 % asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtirildi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 48,7 % ni tashkil etdi.


Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Boysun tumani (32,7 %), Sherobod tumani (14,8 %) va Termiz shahrida 9,7 % kuzatildi.

### **Xorijiy investitsiyalarini o‘zlashtirish, kreditlarni qo‘sghan holda**

	<i>Xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi, mlrd. so‘m</i>		<i>Xorijiy investitsiyalar, nisbatan % da</i>	
	<i>jami</i>	<i>shu jumladan, kreditlar</i>	<i>jamiga</i>	<i>asosiy kapitalga investitsiyalar</i>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>4 791,1</b>	<b>1 540,4</b>	<b>100,0</b>	<b>48,7</b>
Termiz sh.	465,5	324,3	9,7	28,7
<i>tumanlar:</i>				
Oltinsoy	134,1	134,1	2,8	49,8
Angor	185,3	102,7	3,9	54,0
Bandixon	187,2	132,9	3,9	68,0
Boysun	1 566,7	-	32,7	87,7
Muzrabot	144,3	5,6	3,0	45,0
Denov	354,1	344,9	7,4	41,2
Jarqo‘rg‘on	417,3	137,8	8,7	57,0
Qumqo‘rg‘on	47,2	47,2	1,0	18,2
Qiziriq	87,5	72,5	1,8	41,1
Sariosiyo	130,1	35,2	2,7	10,7
Termiz	212,3	144,9	4,4	38,7
Uzun	78,2	2,3	1,6	38,6
Sherobod	706,2	21,3	14,8	73,6
Sho‘rchi	75,1	34,7	1,6	32,1

To‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlarning o‘zlashtirilgan hajmi 2023- yil yanvar-sentabrda 4 500,3 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 149,2 % ni tashkil etdi.

### **Ayrim iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi**



Joriy davrda ham asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlarning katta qismi tog‘-kon sanoati o‘zlashtirilib, 1 385,4 mlrd. so‘mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlar xajmida 28,9 %ni tashkil etdi.

Hajm jihatdan keyingi o‘rinda qayta ishlash sanoati egallagan. Ushbu faoliyat turi bo‘yicha 1 212,9 mlrd. so‘m yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 25,3 %i o‘zlashtirildi.

Axborot va aloqa faoliyatini bo‘yicha 35,2 mlrd. so‘m xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtirilgan.

## Ijtimoiy soha ob'ektlarining qurilishi

